

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLAR»**

MAZHUSIBA BAKHODIROV H. MURAKABEV ALOMIDAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'larni kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

**Mas'ul muharrir(lar):**

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

**Tahrir hay'ati:**

f.f.d.prof. D.A.Rustamov  
f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev  
PhD. dots. M.A.Qurbanov  
f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov  
f.f.d.prof. V.A.Vositov  
PhD. dots. M.G'.Xoshimov  
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov  
PhD. G.M.Ibragimova  
PhD. Q.Umrzakov  
kafedra o'qituvchisi N.Xamidov  
kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

**Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:**

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zları mas'uldirilar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

madaniyatlararo muloqot muammolarini hal qilish va takomillashtirishda o'zgartiruvchi rol o'ynagan yangi davrni boshlab berdi. Innovatsion ilovalar va ilg'or algoritmlar orqali sun'iy intellekt globallashgan dunyoda to'siqlarni yengish va samarali muloqotni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

1. Tarjima qilish va bir-birini tushunish. Madaniyatlararo muloqot ko'pincha til to'siqlarini yengib o'tishni o'z ichiga oladi. SI tilni real vaqt rejimida tarjima qilish vositalari orqali bu jihatni inqilob qildi. Google Translate va Microsoft Translator kabi ilovalar real vaqt rejimida aniq tarjimalarni ta'minlash uchun ilg'or algoritmlardan foydalanadi. Ushbu vositalarda qo'llaniladigan mashinani o'rganish algoritmlari aniqroq va madaniy jihatdan sezgir aloqani ta'minlab, kontekstual nuanslar, idiomalar va madaniy havolalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Misol uchun: Qatnashuvchilari turli tillarda gaplashadigan global biznes uchrashuvini tasavvur qiling. Google Translate kabi sun'iy intellektga asoslangan tarjima vositalari og'zaki so'zlarni dinamik tarzda talqin qilib, turli ishtirokchilar o'rtaida uzluksiz muloqot va tushunishni ta'minlay oladi.

2. Madaniy konteksti tan olish. Madaniyatlararo SI yechimlari madaniy konteksti tan olish orqali oddiy til tarjimasidan tashqariga chiqadi. Murakkab algoritmlar madaniy nuanslarni aniqlash va tushunish uchun aloqalarni tahlil qiladi. Xabar almashishni o'ziga xos madaniy sezgirliklarga moslashtirish orqali sun'iy intellektga asoslangan tizimlar noto'g'ri talqin qilish xavfini kamaytiradi va madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshiradi.

Misol uchun: Marketing kompaniyasida sun'iy intellektga asoslangan platforma reklama mazmunini moslashtirish uchun madaniy nuanslarni tahlil qiladi. Agar mahsulot turli hududlarda targ'ib qilinsa, tizim madaniy kelib chiqishlarni tan olgan holda, xabarni mos ravishda o'zgartirib turadi va kutilmagan madaniy kelishmovchilikning oldini oladi.

3. Shaxsiylashtirilgan aloqa. Madaniyatlararo muloqot sohasida shaxsiylashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. SI ga asoslangan shaxsiylashtirish algoritmlari shaxsiy madaniy imtiyozlar asosida aloqa strategiyalarini moslashtirish uchun foydalanuvchi ma'lumotlaridan foydalanadi. Moslashtirishning ushbu darajasi xabarlar turli xil auditoriyalar bilan rezonanslashishini ta'minlaydi, muloqot uslublaridagi madaniy farqlarni hisobga olgan holda o'zaro tushunish va tushunishni rag'batlantiradi.

Misol uchun: Ijtimoiy media platformalari foydalanuvchi imtiyozlari asosida tarkibni shaxsiylashtirish uchun SIdan foydalanadi. Misol uchun, Facebook algoritmi yangiliklar tasmasini shaxsiy qiziqliklarga ko'ra moslashtiradi, bunda foydalanuvchilarning global miqyosda faolligini oshirish uchun kontent iste'molidagi madaniy farqlarni hisobga oladi.

## «BURCH» KONSEPTINING MA'NAVIY-AXLOQIY TABIATI

Amanbaeva Dilsora Abbamuslimovna  
Andijon davlat chet tillari instituti  
Ingliz tili amaliyoti kafedrasasi tayanch doktoranti

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**Annotasiya:** Tilshunoslikni ikki asosiy yo'naliish ajratib ko'rsatiladi: lingvokognitiv va lingvomadaniy yo'naliishlar. Lingvokognitiv yo'naliishda konseptni jamiyat tushunchalari birligi sifatida qarash, hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo'lib o'rganish mavjud. Lingvomadaniy yo'naliish aniq bir madaniyatga tegishli bo'lgan milliy qadriyatlar asosida konseptni milliy lingvomadaniyat elementi sifatida o'rganishdir.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyat, lingvokognitiiv o'ynalish, konsept, burch, mas'uliyat, vijdon.

**Abstract:** In linguistics there are two main directions: linguocognitive and linguoculturological. In the linguocognitive direction, the concept is considered as a unit of social concepts and is studied in the central and peripheral parts. The linguoculturological direction is the study of the concept as an element of national linguoculture based on national values belonging to a particular culture.

**Key words:** linguoculture, linguocognitive direction, concept, duty, responsibility, conscience.

Rus kognitiv tilshunoslida ikki asosiy yo'naliish ajratib ko'rsatiladi: lingvokognitiv va lingvomadaniy yo'naliishlar. Lingvokognitiv yo'naliishda konseptni jamiyat tushunchalari birligi sifatida qarash, hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo'lib o'rganish mavjud. Bunday qarash E.S.Kubryakova, Z.D.Popova, I.A.Sternin va boshqalarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. Z.D.Popova va I.A.Sterninlar kognitiv tilshunoslikning bugungi kundagi quyidagi yo'naliishlarini ajratib ko'rsatadilar: [5,16].

1) madaniy yo'naliish - turli fanlarga tayanib konseptlarni madaniy element sifatida o'rganish. Bunda til konseptlar haqidagi bilim manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi (masalan, konseptlarni ta'riflashda so'zning etimologiyasi haqidagi axborotlar qo'llaniladi);

2) lingvomadaniy yo'naliish aniq bir madaniyatga tegishli bo'lgan milliy qadriyatlar asosida konseptni milliy lingvokultura elementi sifatida o'rganish: «tildan madaniyatga tomon bo'lgan yo'naliish»;

3) falsafiy-semiotik yo'naliish - belgilarning asosini kognitiv jihatdan o'rganish;

4) semantik-kognitiv yo'naliish tilning lisoniy va grammatik semantikasini konseptlar tarkibiga yo'l ochib beruvchi vosita sifatida o'rganish;

5) mantiqiy yo'naliish - konseptlarni ularning lisoniy shaklidan mustaqil ravishda mantiqiy metodlar yordamida tahlil qilish.

Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning xususiyatini madaniyatdan ong tomonga bo'lgan yo'naliishini o'rganadi. Bu yo'naliishda izlanishlar olib borayotgan olimlar qatoriga Yu.S.Stepanov, V.I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova va boshqalar kiradi. Bu yo'naliishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida o'rganiladi. [1,2,4].

Lingvomadaniy yondashuv doirasida o'rganishning V.I.Karasik tomonidan rivojlantirilgan yangi usuli ushbu xodisalarining qadriyat komponenti nuqtai nazaridan tadqiq qilishni nazarda tutadi. Unda konseptlarni "ma'noga ega bo'lgan va shuningdek, inson hayoti turli sohalariga, qisman, tushunchaviy, qisman obrazli

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

va olamni bilib olish dastlabki madaniy tuzilmalar, so'z ob'ektiv ma'nosining aks ettirilishi sifatida tavsiya qilinadi". [3,183].

Xususan, V.I.Karasik birinchi bo'lib tushunchalarni "kognitiv konsept" va "lingvomadaniy konsept" yoki "madaniy konsept"ga ajratadi, bunda oxirgisi til, tafakkur va madaniyatni kompleks o'rghanishda qo'llaniladigan shartli mental birlik sifatida ta'riflanadi.[2,76]. Konseptning qayd qilingan uchala soha bilan munosabati quyidagi ko'rinishga ega: til - konseptning predmetga aylanish sohasi; tafakkur-konseptning mavjudligi sohasi va nihoyat konseptni aniqlovchi soha, chunki konsept madaniyat elementlarining mental chizig'i hisoblanadi.

Jumladan, lingvomadaniy konseptning ko'p o'lchovli mental tuzilmasini ifodalovchi, to'rt muhim o'lchovini, ya'ni obrazli, tushunchali, qadriyat va ma'noli tarzda lisoniy tasvirga ega bo'lgan va etnomadaniy o'ziga xoslik bilan belgilangan jamoaning bilish yoki tafakkur birligi sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Lingvomadaniy konseptning ko'p o'lchovligi uning murakkabligi, ichki bo'laklarga bo'linishi bilan munosabatda bo'ladi. Bu narsa semantik bo'laklarga bo'linmagan mental tuzilmalarning madaniy-lisoniy muhitga moslashishi uchun lingvomadaniy konsept maqomini olishini ta'minlaydi.

Bugungi rivojlanish jarayonida shaxsning Adolat, Burch va Mas'uliyat kabi axlokiy sifatlarning soxibiga aylanishi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Ma'lumki, odamning asosiy kadri mexnat va unga munosabat bilan belgilanadi.Jamiyat va davlat tomonidan odam mexnatiga beriladigan munosib baxo sosial adolatning amalda namoyon bo'lishi, axloqning barkaror tus olish omilidir.

Demak, shaxs va jamiyat takomilida o'zaro uyg'unlik yo'nalishi mavjud. Biroq bu o'rinda shaxsning eng muxim axloqiy sifitlariga ega bo'lishi xamon asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi shaxs axloqiy kategoriylarining adolat, burch va mas'uliyat sifatlarisiz komil inson bo'la olmaydi. Aslida bu sifatlarda ijtimoiy ma'no nisbatan ustuvor. Lekin ularning zamirida ma'naviy-axloqiy baxolash elementi ilk rejada turadi.

Burch kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda ob'ektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy,iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch iymon,e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq.

Vijdon axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash. Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdon dastlabki axloqiy mayl bo'lib, tashqi ta'sir tufayli rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. U ehtiros, hissiyot shaklida shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun uyalish, pushaymon bo'lish yoki axloqiy qoniqish sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

1. Ashurova D.U. Stilisticheskie i pragmaticheskie aspekti slovoobrazovaniya angliyskogo yazika. Diss... dok.filol.nauk. T.: 1993. 406 s.
2. Karasik V.I. Kulturnie dominanti v yazike // Yazikovaya lichnost: kulturnie konsepti: sb. nauchn.tr.Volgograd -Arxangelsk: Peremena, 2002g.76s.
3. Karasik V.I. Kulturnie dominanti v yazike // Yazikovaya lichnost: kulturnie konsepti: sb. nauchn.tr.Volgograd -Arxangelsk: Peremena, 2002g.183s.
4. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. Ucheb. Posobie -3-e izd., Minsk: Tetra Sistems, 2008. 272 s.
5. Popova Z.D., Sternin I.A. Yazik i nasionalnoe soznanie. Voprosi teorii i metodologii. Voronej: VGU. 2002g. 16s

## MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALAR AHAMIYATI

**Mo'minova Matluba Akmalxon qizi  
Andijon davlat chet tillari instituti magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muloqotda noverbal vositalar ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Noverbal vositalar inson muloqotida juda muhim ahamiyatga egadir. Insonlar bilan muloqotda bu nafaqat so'zlar ahamiyati yoki axborot yetkazib berishning muhim usuli, balki til muloqoti va boshqa til bilan bog'liq bo'limgan aloqa-aratashuv vositalar, turli semantik ma'lumotlarni uzatish, verbal vositalarni noverbal orqali ifodalash mumkin bo'lgan kommunikativ muloqotga aytiladi. Noverbal vositalar til aloqasini yanada aniq, jonli va samarali ifodalash kuchiga ega. U so'zlarning mazmunini aniqlash, almashtirish va chuqurlashtirish vazifasini bajaradi. Noverbal vositalar insonlar o'rtasida gegemon til aloqa vositasi hisoblanmasa ham tabiiy muloqotimizning muhim tarkibiy qismidir.

### **Kalit so'zlar: verbal, noverbal, muloqot, paralingvistik vositalar**

Tilni, muloqotni, millat madaniyatini va tarixini ifodalash mumkin bo'lgan mustaqil aloqa vositasidir. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning verbal vositalar o'rnida qo'llanilishi, ularning nutqda yuzaga chiqish zarurati, so'zlovchi fikrlarining inson tana a'zolari, ovoz ohangi, kiyim-kechaklari, semiotik va kodlangan belgilar orqali ifodalanishi, muloqotdagi o'rni, vazifalari va nutqiy tejamkorlikni ta'minlashi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunga qadar noverbal muloqot va uning komponentlari yuzasidan deyarli barcha lingvistik maktablarda izlanishlar olib borilib, unga tegishli bo'lgan qirralar olib berilgan. Biroq ularda noverbal vositalar, asosan, verbal muloqotga nisbatan batamom ikkilamchi komponent eki parallel qo'llanadigan qo'shimcha vosita sifatida talqin etib kelingan. Ayrim vaziyatlarda lingvistik belgilarning ham imkoniyatlari cheklanishi mumkinligi, aynan verbal vositalarning noverbal muloqot uchun erdamchi komponent, ya'ni ikkilamchi va qo'shimcha axborot berish vazifasini o'tab kelishi kabi masalalar tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolib ketgan. Hozirda mazkur masalalar yuzasidan jahon ilm-fanida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, masalaga A.Meyerabian, A.Piz, E.Bern,

33.	Linguoculturemes in Modern English, Uzbek and Russian and problems of translation N.A.Otahonova	115
34.	TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI Davlatova Hulkaroy Uktamovna	117
35.	ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MULOQOT VA UNING NAZARIY ASOSLARI Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi	123
36.	INGLIZ VA O'ZBEK FRAZEOLOGIYASIDA GENDER STEREOTIPLAR DINAMIKASI Qoraqo'ziyeva Diyora Iqboliddin qizi	125

**2-SHO'BA. UMUMIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI.**

37.	O'ZBEK TILI MILLIY-MADANIY SEMASIDA "SUV" LEKSEMASINING IFODALANISHI  Hayitova Mahliyo Ilhom qizi	130
38.	TERMINOLOGIYANING RUS TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI Karimov Kamoldin Nasriddinovich	132
39.	MADANIYATLARARO MULOQOTDA SUN'iy INTELLEKTNING O'RNI  Adaxamova Muqaddasxon Nuriddin qizi	136
40.	«BURCH» KONSEPTINING MA'NAVIY-AXLOQIY TABIATI Amanbaeva Dilsora Abbamuslimovna	138
41.	MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALAR AHAMIYATI Mo'minova Matluba Akmalxon qizi	141
42.	ON THE USAGE OF NON-VERBAL MEANS IN COMMUNICATION  Anvarbekova Oydinoy Zafarbek qizi	143
43.	SOCIAL FACTORS IN LINGUISTIC CHANGE: INSIGHTS FROM LABOV'S PHONOLOGICAL STUDIES Mamadalievna Madinabonu Jaxongir qizi	148
44.	GENESIS OF TEXT AND SPEECH CONCEPTS. THEIR FORMAL AND INFORMAL STYLES AND DIFFERENCES BETWEEN THEM Ashurova Muxayyoxon Sanjarbek qizi	150
45.	TOPONIMLAR TARIXDAN SABOQ BERADI Asqarova Yorqinoy Mo'minjon qizi	154
46.	IJTIMOIY-KASBIY NOMINATSIYA SEMANTIKASINING IJTIMOIY ASOSLANGANLIGI Xamidov Behzod Axadovich	157
47.	BADIY ADABIYOTLARDA DIN KONSEPTINING IFODALANILISHI Nafisaxon Maxamatqulova	159
48.	LITOTA- STILISTIK VOSITA SIFATIDA Djabbarova Z.R.	165
49.	ETYMOLOGY OF THE LEXEME "MOUTH" IN ENGLISH AND ITS MANIFESTATION AS CONCEPT IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD Otajonov Botirbek Ashuralievich	168
50.	FEATURES OF WRITTEN CORPORA EXPLOITED IN CREATING LANGUAGE TEACHING MATERIALS	172